

TABIATNI BIOLOGIK XILMA-XILLIKNI SAQLASH HOZIRGI DAVR TALABI

*A.Qodiriy nomli JDPU Tabiiy fanlar fakulteti
Zoologiya va anatomiy kafedrası
stajyor o'qituvchisi O'ralova Nilufar Utayevna
Tel. +99890 515 55 87*

Annotatsiya: *Maqolada biologik xilma-xillikni saqlash global ustuvor masala ekanligi haqida, o'simlik va hayvonot olamining atrof muhit va insoniyat hayotidagi muhim o'рни haqida fikrlar bildirilgan.*

Аннотация: *В статье сохранение биологического разнообразия является глобальной приоритетной задачей, а также высказываются мнения о важной роли флоры и фауны в окружающей среде и жизни человека.*

Abstract: *In the article, the preservation of biological diversity is a global priority issue, and opinions are expressed about the important role of the flora and fauna in the environment and human life.*

Kalit so'zlar: *Biologik xilma-xillik, Bioxilma-xillik to'g'risidagi Konvensiya, ekologik axloq, ekologik dunyoqarash .*

Bugungi davrga kelib biologik xilma-xillikni saqlash global ustuvor ahamiyat kasb etmoqda va yer yuzida joylashga barcha davlatlarning barqaror rivojlanish rejasining asosiy maqsadlaridan biri bu biologik xilma-xillikni saqlash hisoblanadi.

1992-yilda BMTning Atrof-muhit va Rivojlanish bo'yicha konferinsiyasida 156 ta davlat imzolagan Bioxilma-xillik to'g'risidagi Konvensiya yo'nalishda hal qiluvchi qadam hisoblanadi (Rio-deJaneyrodagi "Yer muammolari bo'yicha oliy darajadagi uchrashuv") 1993-yilda u xalqaro hujjat sifatida kuchga kirib 1995-yil oxirida 120 ta davlatda jumladan O'zbekistonda ham ratifikatsiya qilindi.

Konvensiyaning asosiy maqsadlari:

- yerning biologik resurslari ham yerdagi, ham suvdagi jumladan o'simliklar, hayvonlar va mikroorganizmlar xilma-xilligini saqlash;
- mamlakatlarning o'z biologik resurslaridan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida va resurslarga, hamda bu tarmoqlarga zarar keltirmaydiga usullar bilan foydalanishini ta'minlash;
- genetik resurslardan foydalanish imkoniyatlari va shu asosda olinadigan foydalarni adolatli va teng taqsimlanishini rag'batlantirish.

Konvensiya hukumatlardan tabiat manbalarini boshqarish va ishlab chiqishda Bioxilma-xillikni saqlash va samarali foydalanishni ta'minlashni talab qiladi. U milliy iqtisodiy tuzilmalarini va siyosatni hamda ularni saqlash va samarali foydalanishni rag'batlantirish bo'yicha iqtisodiy shart-sharoitlar yaratish usullarini aniqlash uchun baholashni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, Konvensiyada alohida

shart sifatida ta'kidlanadiki, uning tomonlari (yoki qonun chiqaruvchi idoralari ushbu bitim bilan o'zlarini bog'lashga majburiyat olgan davlatlar) ma'lim bir tadbirlarni amalga oshirishlari shart, jumladan:

- biologik resurslarni saqlash va betalofat foydalanish bo'yicha milliy strategiya-larni ishlab chiqish;
- jamiyatning xabardorligi va ta'limini rag'batlantirish ;
- tatqiqot va o'quv dasturlarini ta'sis etish ;
- "Atrof-muhitga ta'sirini baholash" maxsus jarayoni yordamida iqtisodiy rivojlanish bosqichida Bioxilma-xillik masalalarining zaruriy hisobini ta'minlash;
- tomonlar o'rtasidagi ilmiy va texnik hamkorlikni rag'batlantirish kabilarni o'z ichiga oladi.

Biologik xilma - xillikni saqlab qolishdan mamlakat rivojida iqtisodiy maqsadlarda foydalanish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiy ma'lumotlarga ko'ra mamlakatimizning iqtisodiy rivojlanishi uning asosiy tabiiy omillarining barqarorligi va sifatiga, ya'ni o'zaro chambarchas bog'langan bo'lib. Bular iqlim, suv, biologik, ekologik, qishloq xo'jalik va boshqa resurslar bilan bevosita bog'liq hisoblanadi. Mamlakatimiz iqtisodiy hayotining bir maromda davom etishini taminlashda biologik xilma-xillikni saqlash muhim sanalib, bu borada muhim ishlar amalga oshirib borilmoqda. Bu borada kamayib borayotgan turlarni himoya qilishga yo'naltirilgan hududlar alohida ahamiyat kasb etadi. Misol uchun biror kamayib borayotga o'simlik yoki hayvon turini saqlash ma'lum ma'noda aholining ijtimoiy iqtisodiy hayotiga ta'sir etib turadi. O'simlik bo'ladini yoki hayvon bo'ladini avvalo tabiatda uning o'rni beqiyos. Mamlakat iqtisodiy rivojlanishida ishlab chiqarish xususan dori-darmon, oziq ovqat, kiyim-kechak asosiy o'rnlarni egallab turadi va bularni barini biologik xilma-xilliksiz ya'ni o'simliklar hamda hayvonot olamisiz tasavvur qila olmaymiz. Dori darmon tayyorlashda ya'ni farmatsevtika sohasi misolida bioxilmaxillikni saqlashning ahamiyatligini ko'rib chiqadigan bo'lsak : dori darmon tayyorlashda o'simliklar moylaridan va tarkibidagi har xil hususiyatga ega bo'lgan moddalardan turli kasalliklar simptomlari misol uchun og'riq qoldiruvchi, ko'ngil aynishini bosuvchi, qon aylanishiga ta'sir etuvchi, ovqat hazm qiluvchi, organizmdagi issiqlikni tushuruvchi dori preparatlari ishlab chiqiladi. Bundan tashqari farmatsevtikada huddi shu maqsadlarda ayrim hayvonlar zahari, yog'i va fermentlaridan dori darmon ishlab chiqarish sanoatida foydalaniladi. Bu esa o'z navbatida biologik xilma-xillik resurslaridan oqilona foydalanish kerakligidan dalolat beradi. Biz biologik xilma-xillikning ahamiyatini oziq ovqat va kiyim kechak sanoatida ham ko'rib chiqishimiz mumkin. O'zbekiston iqtisodining asosiy yo'nalishlari bo'lgan dori-darmon, oziq ovqat, kiyim-kechak sanoatining rivojida o'simlik va hayvonot olami alohida ahamiyat kasb etadi. Hozirgi rivojlanayotgan shu bilan birgalikda dori-darmon, oziq ovqat, kiyim-kechakka bo'lgan ehtiyojning ortib borishi va uni qondirish ,biologik xilma-xillikni asrab avaylash hozirda mavjud bo'lgan resurslardan oqilona foydalanish chora tadbirlarini ishlab chiqishni talab qiladi. Hozirgi davrga kelib biologik xilma-xillikning zamonaviy muommolari vujudga kelmoqda va bu muammolarning asosiy sababchisi inson va uning har xil ehtiyojlarini qondirish yo'lidagi harakatlari deyishimiz mumkin. Bir so'z bilan

aytganda insoniyat yer yuzidagi biologik xilma-xillikning zamonaviy muommolarini vujudga keltirayotgan asosiy omil bo'lib qolmoqda. O'ylaymizki biologik xilma-xillikning zamonaviy muommolarini oldini olish va inson zararini bartaraf etish uchun avvalo odanlarning tabiatga bo'lgan munosabatini o'zgartirish. Insonlarda o'simlik va hayvonlarga nisbatan mehr shafqat, mehribonlik va ma'suliyatlilik hissini rivojlantirish lozim.

Hozirgi kunga kelib O'zbekistonda 27 000 ta nodir va yo'qolish xavfi ostidagi turlar mavjud bo'lib - ushbu bioxilma-xillikning muhofazasini yaxshilash usutvor yo'nalishga aylanishi lozim. Mamlakatimizda insonlarning e'tiboriga va himoyasiga muhtoj bo'lgan, turfahil atrof-muhitdagi nodir yovvoyi tabiatga ega turlar mavjud. Bizning bioxilma-xilligimizni tashkil etuvchi yo'qolish xavfi ostidagi ba'zi turlarni, shu jumladan Milliy Qizil kitobga kiritilgan qor qoplonini, Buxoro bug'usini va sayg'oqlarni o'z ichiga oladi. BMTTDning mazkur nabotot va hayvonot dunyolarini himoya qilish bo'yicha faoliyati, haqiqiy barqaror taraqqiyot nafaqat bioxilma-xillikning rivojlanishdagi o'rnini e'tirof etishi, balki uning saqlanib qolishi uchun qulay sharoitlarni ta'minlab berishi lozimligini anglash asosiga qurilgan. Barqaror rivojlanishga o'tish hamda bioxilma-xillikni saqlab qolishni talab etayotgan hozirgi sharoitda ekologik axloqning vazifalari quyidagilardan iborat:

1) antropotsentrik fikrlash paradigmasiga asoslangan tabiatga eski, iste'molchi-g'ayriinsoniy munosabatni yo'q qilish;

2) inson uchun qilinayotgan hamma narsa tabiatga zarar yetkazmasligi kerakligiga asoslangan yangi ekologik dunyoqarashni insonlar ongiga singdirish;

3) kelajak avlodlar farovonligini va kamayib borayotgan turlarni saqlanib qolinishini ta'minlash;

4) tirik mavjudotlarning boshqa turlari bilan birga yashaydigan biosferani - umumiy uyni saqlash.

Bu insonlar uchun barqaror va sog'lom muhitni cheksiz bo'lgan vaqt davo-mida saqlanib turishiga yordam beradi. Bioxilma-xillikni saqlashda asosiy yo'nalishlar ekologik muammolarni hal qilishga hamda ekologik dunyoqarashni shakllantirishga qaratilishi kerakligini talab qiladi. Texnologik chiqindilar miqdorini tozalash va kamaytirish uchun resurslarni tejovchi texnologiyalar va tizimlarni ishlab chiqish va tarqatishni nazarda tutadi. Biroq, ekologik muammolarni hal qilish uchun buni o'zi yetarli emas. Zamonaviy insonning xulq-atvori va madaniyatini, uning qadriyat yo'nalishlari va munosabatlarini o'zgartirish kerak. Bu o'zgarishlar inqilobiy xarakterga ega bo'lib, bu yerda ekologik axloqning asosiy jihatlari shakllanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi qonunlari O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida" 1992-yil 9-dekabrda qonuni «Adolat», 1993.

2. Bioxilma-xillik va uning muhofazasi T-2019 . D.O. Azimova, D.Sh. Yodgorova, L.Sh. Egamberdiyeva, B.T. Jabborov



3. “Biologik xilma-xilikni muhofaza qilishda xalqaro talablar” Obidxonov M. Muhammadyusupov A
4. O‘zbekiston Respublikasining “O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi (26.12.1997y.).
5. O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobi. Tom 1. O‘simliklar. “Chinor ENK”, 2016